QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

XORAZMSHOLAR DAVLATIDA ME’MORCHILIKNING TARAQQIY ETISHI.

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.115

***D.M.Yunusova**, katta o‘qituvchi,*
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘rta asrlarda Xorazm vohasida me’morchilikning taraqqiy etish, uning mamlakat ijtimoiy hayotini taraqqiy etishini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi, Xorazmshoh Anushtaginiylar davri me’morchiliging o‘ziga xos jihatlari keng yoritilgan. O‘rta asrlarda Xorazm tarixiy obidalarining ta’rifi haqida ma’lumotlar tahliliy bayon qilingan.

Kalit so‘z. me’morchilik, Xorazmshoxlar, maqbara, Gurganj, shaharlar, yodgorliklar.

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается развитие архитектуры в Хорезмском оазисе в среднии веках, её значение как важного инструмента, отражающего развитие общественной жизни страны, а также специфические аспекты архитектуры в период правления Хорезмского шаха Ануштагини. Аналитически представлена информация об описании исторических памятников Хорезма в Средние века.

Ключевые слова: архитектура, хорезмшахи, мавзолей, Гургандж, города, памятники.

Abstract. This article examines in detail the development of architecture in the Khorezm oasis from the middle ages, its significance as a key tool for reflecting the development of the country's social life, and the architectural features of the reign of the Anushtaginid Khorezmshahs. It presents analytical information on the description of the historical monuments of Khorezm during the Middle Ages.

Keywords: architecture, Khorezmshahs, mausoleum, Gurganj, cities, monuments.

Kirish.XI-XIII asrlarda Xorazm vohasida me’morcilik ishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Me’moriy obidalar, ma’muriy binolar, madrasalar, masjidlar, karvon saroylar va maqbaralar yangi me’moriy uslubda bunyod etilgan. Mazkur binolar shaharning markaziy qismida qurilgan[6].

XI–XII asrlar davomida Xorazm me’morchiligida pishiq g‘isht asosiy qurilish materialiga aylandi. Bu material nafaqat konstruktiv, balki dekorativ jihatdan ham keng

imkoniyatlar yaratdi. Xorazm g‘ishtlari o‘zining yuqori sifatli xom ashyosi (loy) va pishirish texnologiyasi tufayli ajoyib mustahkamlikka ega bo‘lgan.

Pishiq g‘ishtdan nafaqat devorlar qurishda, balki bezak yaratishda ham foydalanilgan. G‘ishtni turli usullarda (baland, tekis, qiyshiq) terish orqali geometrik naqshlar “sovut”, “balxi” va boshqalar hosil qilingan. Bu usul ayniqsa peshtoq, ravoq va gumbaz osti qismlarining bezagida keng qo‘llanilgan. Rang jihatidan tabiiy g‘ishtning sarg‘ish-qizg‘ish rangi binolarga issiq va jozibador ko‘rinish bag‘ishlagan. G‘isht o‘lchamlari odatda 25×25×5 sm yoki 28×28×5 sm bo‘lib, bu o‘lchovlar binolarning nisbatlarini hisoblashda qulaylik yaratgan.

XI–XII asrlarga kelib Xorazm shaharsozligi o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqdi. Shaharlar rejalashtirishda an’anaviy sharqona tamoyillar markaziy jome masjidi, bozor maydoni (chorsu) va asosiy ko‘chalarning kesishgan nuqtasi muhim o‘rin tutdi. Gurganj (Kunya-Urganch), Kat va boshqa shaharlar nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro savdo yo‘llarining muhim tugunlariga aylangan.

Xorazm me’morchiligi shakllanish jarayonida qo‘shni hududlar Movarounnahr, Xurosan, Eron va Dashti Qipchoq me’moriy an’analari ta’sirida rivojlangan. Biroq, bu ta’sirlar mahalliy ustalar tomonidan ijodiy qayta ishlangan va Xorazmning o‘ziga xos iqlimiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlariga moslashtirilgan. Masalan, Eron me’morchiligidan olingan ayvonli hovli sxemasi Xorazmda yanada keng va ochiq tarzda qo‘llanilgan, bu issiq iqlim sharoitida shamol aylanishini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan.

Ko‘hna Urganchdagi Faxriddin Roziy va Tekesh maqbarasi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib Markaziy Osiyoda keng tarqalgan peshtoq-gumbazli kompozitsiya tipiga kirsa ham, lekin qirrali barabanga o‘rnatilgan chodirsimon gumbazdan tashkil topgan. Turkmanistondagi peshtoq-gumbazli binolar bezatilishida g‘ishtning badiiy imkoniyatidan keng foydalanilgan[7].

XI-XII asrlar Anushtegniylar hukmronligi davrida Xorazm vohasining iqtisodiy-madaniy taraqqiyot natijasida yirik-yirik inshoatlar qurila boshlandi. Ayniqsa, pishiq g‘ishtdan ravoqlar va gumbazlar qurilishi an’anaga aylandi. G‘ishtni turli usullarda (baland, tekis, qiyshiq) terish orqali geometrik naqshlar “sovut”, “balxi” va boshqalar hosil qilingan. Bu usul ayniqsa peshtoq, ravoq va gumbaz osti qismlarining bezagida keng qo‘llanilgan. Rang jihatidan tabiiy g‘ishtning sarg‘ish-qizg‘ish rangi binolarga issiq va jozibador ko‘rinish bag‘ishlagan.

Bu davr me’morchiligining yana bir xususiyati binolarda sirli va rangli koshinlardan foydalanilganligidir. Natijada, qurilishda foydalaniladigan turli maxsus kasblar paydo bo‘lib me’morchilik tarixda «Binokor shoh» nomi bilan kirgan, girih san’ti yuksalgan, arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko‘tarilgan[7].

X asrdan kufiy, XI-XII asrlardan nasx yozuvi me’morchilikda ko‘p ishlatila boshlagan. Shulardan Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi diqqatga sazovordir. 1175-yilda vafot etgan Xuroson hokimi saljuqiy Sulton Sanjar o‘zi hayotlik vaqtida qurdirgan, deb taxmin qilinuvchi

bu bino devorlarining qalinligi 5 metrni tashkil etib, maqbaraning ichki tomonlari 17 metrni tashkil etuvchi kvadratdan iboratdir. Ichki balandligi 35 metrga teng bo‘lgan bu imorat nihoyatda mahobatlidir. Kirish eshigi g‘arb tomonda joylashgan. To‘rtburchak qismining balandligi 15 m. Undan yuqoridagi gumbazga o‘tuvchi sakkizburchak qismi tashqi va ichki tarafdan ravoqdor galereyani tashkil etadi. Sakkiz burchakning har uchidan gumbaz konstruksiyasi tashkil turadi. Gumbaz tashqi ko‘rinishi moviy rangda bo‘lganligi haqida o‘sha vaqtda yashab o‘tgan mualliflarning ma’lumoti saqlanib qolgan.

Faxr ad-din Roziy maqbarasi Ko‘hna-Urganchda saqlanib qolgan barcha yodgorliklari ichida eng qadimgisi XII-XIII asrlarga tegishli obida. Inshoat shaklining soddaligi, Xorazm arxitekturasiga xos, tomning silueti va rangiga urg‘u berishi bilan ajralib turadi, bu maqbara kichik hajmli, deyarli to‘rtburchak rejali bo‘lib, maqbara o‘n ikki qirrali piramidali gumbaz va barabandan iborat bo‘lib, toraygan g‘isht kubining tepasida joylashgan. Tosh panjarali teshiklari bo‘lgan kichik kemerli bo‘shliqlar kvadrat kameraning bezaksiz g’ishtli jabhalarini ifodalaydi. Kvadrat shaklida, to‘rtta qirrali bo‘shliqlar bilan kengaytirilgan sharsimon gumbaz bilan qoplangan, unda barabanning old tomoniga qaragan to‘rtta deraza teshiklari kesilgan. Maqbara birmuncha mukammal ta’mirlangan bo‘lsa-da, qadimgi va ta’mirlangan toshlarda sezilarli deformatsiyalar mavjud. Maqbara poydevorning kengligi taxminan 1,6 metr, g‘arbiy tomonida esa 1,9 metrgacha, devorlari qalinligi 1,5-1,6 metr. Yodgorlik 1940-1959-yillarda ta’mirlangan. Qalinligi 1,5 metr bo‘lgan qo‘shni madaniy yodgorliklar qatlamini batafsil qazish ishlari tarixni aniqlashtirish va birinchi navbatda, yodgorlikning yo‘qolgan qismlarini, umumiy ko‘rinishni qayta tiklashga yordam beradi. Tashqi gumbazning deyarli butun yuzi saqlanib qolgan. Ta’kidlash joizki, tashqi qirrali tom yopish g‘ishtlari faqat dekorativ bo‘lib, chunki uning ichki qismi konussimon shaklga ega. Umuman olganda, shipning tuzilishi, teshiklarning mavjudligi vaqt ta’siriga yaxshi bardosh beradi. Butun yodgorlikning aniq konstruktiv dizayni, ishning umumiy yuqori sifati, yuksak badiy bezakli ishlov berish quruvchilarning mahoratidan dalolat beradi. Bu esa maqbaraning asl holatini aniqlash nuqtai nazaridan ham, uni mustahkamlash va kelgusida saqlanishini ta’minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish ham deformatsiya sabablarini aniqlashni yanada qiziqarli qiladi. Ma’lum bo‘lishicha, maqbara 7 balli zilzilaga bardoshli. Yodgorlikning zaiflashuvi uzoq vaqt e’tiborsizlik paytida ob-havo va buzilish tufayli yuzaga keldi, bu barqarorlikni yo‘qotishiga, aniqrog‘i, tanqidiy deformatsiyalarning boshlanishiga olib keldi. Mustahkamlashning o‘ziga xos ehtiyoji ta’mirlash ishlarining usuliga qarab belgilanishi kerak. Faxriddin Roziy maqbarasi konstruksiyalarini o‘rganish uning hozirgi xolati xavfsiz, ammo zudlik bilan konservativ ta’mirlash zarurligini anglatadi.

“Ko‘hna-Urganch” davlat tarixiy va madaniy bog’i 1985-yilda tashkil etilgan. Maqbara 2005-yilda YUNESKO tomonidan Ko’hna-Urganch shahri Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilganidan so‘ng restavratsiya qilingan. Maqbaraning YUNESCO tomonidan e’tirof etilishining asosiy sabablari quyidagilar:

- Xorazmshohlar davri me’morchiligining noyob namunasi ekanligi;

- Markaziy Osiyoda islomiy me’morchilik taraqqiyotidagi muhim bosqichni ifodalashi;
- tarixiy shaharsozlik va monumental qurilish an’analarini aks ettirishi.

Yodgorlikni ta’mirlashda zinapoyalardan tashqari, uch pog‘onali zinapoyalar o‘rnatilib, atrofi tartibga keltirildi[11]. Ba’zi tadqiqotlarga ko‘ra, u XII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Maqbarani bir vaqtning o‘zida Il-Arslon maqbarasi[12] deb ham aytishadi ammo buning sababi haligacha noaniq. Il-Arslon maqbarasi o'zining soddaligi va nafisligi bilan mashhur bo‘lgan o‘rta asr me’morchiligining ajoyib namunasidir. Il-Arslon maqbarasi o‘z vaqtida bir nechta muhim vazifalarni bajargan:

- hukmdor hokimiyatining ulug’vorligi timsoli sifatida xizmat qilgan;
- ziyoratgoh vazifasini bajargan;
- yangi konstruktiv va badiiy yechimlar sinovdan o‘tkazilgan.

U Xorazmshohlar davrida monumental maqbaralar qurish an’anasining shakllanishiga asos bo‘ldi va keyingi asrlardagi me’morchilik rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Chingizxon qo‘shinlari 1221-yilda Xorazmga bostirib kirgandan so‘ng shaharning ko‘p qismini vayron qilishdi, shaharni vayron qilganidan keyin ham maqbara saqlanib qolgan, mo‘g‘ullar shaharning asosiy qismidagi barcha binolardan faqat bitta masjidni qoldirgan. 1980-yillardagi restavratsiya ishlari inshoatni, xususan, maqbara devorlari va gumbazdagi g‘isht ishlarini puxta ta’mirlashni o‘z ichiga olgan. Hozirgi kunda maqbarani saqlab qolish maqsadida YUNESKO mutaxassislari tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[11]:

- Konstruktiv mustahkamlash ishlari;
- Gumbaz va devorlarning restavratsiyasi;
- Yemirilgan va terakota elementlarini ilmiy asosda tiklash;
- Yodgorlik atrofida muhofaza zonasini tashkil etish;
- Doimiy montoring va ilmiy kuzatuvlar olib borilmoqda.

Xulosa. XI–XII asrlar Xorazm me’morchiligi va me’moriy bezak san’ati Markaziy Osiyo madaniy-tarixiy taraqqiyotining murakkab va sermahsul davrini ifodalaydi. Ushbu tadqiqot davomida o‘rganilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm me’moriy maktabi nafaqat mahalliy an’analarning uzluksiz rivoji, balki keng mintaqaviy madaniy almashinuvlar va ijodiy uyg‘unlashuv mahsuli sifatida shakllangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm me’morchiligi faol madaniy aloqalar sharoitida rivojlandi. U Xuroson, Eron, Movarounnahr, Dashti Qipchoq an’analari bilan doimiy muloqotda bo‘lib, ularni mahalliy ehtiyoj va imkoniyatlar asosida ijodiy qayta shakllandi. Shu bilan birga, Xorazm o‘zining me’moriy yechimlari va bezak uslublari bilan qo‘shni mintaqalarning me’morchilik rivojiga o‘z hissasini qo‘shdi. Xorazmshohlar davri (XII–XIII asr boshlari) me’morchiligi mahalliy qurilish an’analarining yuksak cho‘qqisini belgilab berdi[7]. Bu davrda pishiq g‘isht asosida qurilish texnikasi mukammallashdi, ikki qavatli gumbazli konstruksiyalar keng tarqaldi va shaharsozlik tizimi murakkablashdi. Sulton Tekesh, Faxriddin Roziy kabi yodgorliklar nafaqat diniy-ma’naviy markazlar, balki yuksak muhandislik tafakkuri va badiiy qadriyatlar namoyondasi sifatida tarixga kirgan. Bezak san’ati esa asosan o‘yma terrakota va g‘isht

naqshlariga asoslangan bo‘lib, cheklangan rang palitrasiga qaramay, kompozitsion mukammallik va chuqur ramziy mazmun bilan ajralib turdi.

Bugungi kunda Xorazm yodgorliklari nafaqat milliy, balki umumbashariy madaniy qadriyat sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda va ularni o‘rganish orqali Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy tarixi va badiiy tafakkuri chuqurroq anglash mumkin. Yozma manbalar va dala tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, butun yodgorlikning tarkibi va asl ko‘rinishi juda munozarali bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning tarixi ko‘p jihatdan noaniq, shuning uchun gumbazni kapital ta’mirlashdan tashqari, unga tutash hududda ham chuqur arxeologik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Balxiy gumbaz[11], ikki qatlamli va kulohiy gumbazlar Xorazm vohasining me’morchilik maktabi xususiyatlari Ko‘hna Urganchdagi me’moriy obidalar misolida kulohiy gumbazlar, Movarounnahr maktabi xususiyatlari, masjid turlari, Minoralarning konstruktiv xususiyatlari, ularning shaharsozlikdagi ahamiyati oshib borgan.

Xorazm me’morchiligining asosiy xususiyati uning barqarorligi va moslashuvchanligida namoyon bo‘ladi. Xorazm me’moriy maktabi Markaziy Osiyo madaniyatining ajralmas qismi sifatida keyingi davrlar, xususan Temuriylar me’morchiligi uchun muhim badiiy va texnologik poydevor bo‘lib xizmat qildi. Uning yutuqlari nafaqat o‘tmishdagi buyuklikni eslatadi, balki me’morchilik merosini saqlash va o‘rganishning dolzarbligini ham ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.

3. Ёқут ал-Ҳамавий. Муъжам ал-удабо. Миср, 1925, 1929, 1931.

4. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. — T.: Sharq, 2000.

5. Бартольд В.В. Туркестан в поху монголтского нашествия// Сочинения. — М., 1963. Т. 1. 760 с.

6. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов 1097-1231 г. — М., 1986. — 247 с.

7. Аҳмедов М.Қ.Ўрта Осиё Меъморчилиги Тарихи.-Тошкент: Ўзбекстон, 1995.-Б.146.

8. Oydin Tonariy. Jaloliddin va uning davri. (Turk tilidan Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi.) — T.: Sharq, 1999.

9. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. –Тошкент, 1959. -Б.132-137.

10. Ne’matullo Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati.-T,1993. 104 bet.

11. Sayan Yuksel. Turkmanistondagi memuar asarlar: XI-XVI. Yüzyıl, Kültür Bakanlığı, Ankara, 1999. www.archnet.org

12. http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/321